

3-4-sinf o`quvchilar uchun maxsus tuzilgan test


Savollar soni: 20 ta

Jami to`planadigan ball: 100 ball



3,1 ball bilan baholanadigan savollar

1. (3,1 ball) Quyidagi qog'ozni ko'rsatilgan chiziq bo'ylab buklanganda, qaysi ikkita kvadrat ustma-ust tushadi?



- A)  B)  C)  D) 

2. (3,1 ball) Savatda bir nechta olmalar bor edi. Davron olmalarning yarmini va 5 ta olma olganidan keyin, savatda 22 ta olma qoldi. Savatdagi dastlab

- A) 49 B) 54 C) 27 D) 47

3. (3,1 ball) Abduqodirda 445 gr bo'lgan jo'natma bor va quyidagi og'irlikdagi tarozi toshlari bor:



Eng kamida nechta tarozi toshlari bilan, u tarozi pallalarini tenglashtira oladi?




- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

4. (3,1 ball) Olim katta rasmdagi shaklning 2x2 qismini bo'yamoqchi. Unda nechta imkoniyat bor?

- A) 5 B) 6 C) 7 D) 8



kvadrat



5. (3,1 ball) Quyidagi boshqotirmadagi “?” o‘rnidagi sonni toping,

$$\text{Pink Girl} + \text{Pink Girl} + \text{Pink Girl} = 102$$

$$\text{Black Boy} \times \text{Black Boy} + \text{Pink Girl} = 178$$


$$\text{Brown Boy} \times \text{Black Boy} \times \text{Black Boy} = 360$$

$$\text{Pink Girl} \times \text{Brown Boy} \times \text{Black Boy} = ?$$

- A) 510 B) 1020 C) 2040 D) 4080

4,2 ball bilan baholanadigan savollar

6. (4,2 ball) Bo'yalgan soha yuzini hisoblang (cm^2).



- A) 12 B) 14 C) 16 D) 20

7. (4,2 ball) Zilola xolada bir nechta xurmo mevasi bor edi. Zilola xola o'zidagi xurmolarni nevaralariga teng miqdorda bo'lib berdi. Natijada har bir nevaraga 25 tadan xurmo mevasi tarqatildi va o'zida 13 dona ortib qoldi. Dastlab, Zilola xolada eng kamida nechta xurmo mevasi bo'lgan?

- A) 38 ta B) 350 ta C) 363 ta D) 325 ta

8. (4,2 ball) Hayvonot bog'idagi jirafa va kengurularning umumiy soni 28 ta, ularning jami oyoqlari soni 72 ta bo'lsa, hayvonot bog'idagi jirafalar soni kengurulardan qanchaga kam?

- A) 12 B) 47 C) 13 D) 7




9. (4,2 ball) Bir nechta natural sonlar ko'paytamsi 360 ga teng. Bu sonlar yig'indisi eng kamida nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) 14 B) 17 C) 66 D) 361

10. (4,2 ball) Ozodbek kvadrat shaklidagi qog'ozdan 4 ta kichik kulrang kvadratchalar kesib oldi. Ularning tomonlari mos ravishda 1, 2, 3 va 6 ga teng. Kesib olingandan qolgan oq yuza, kesib olingan kvadratchalarning jami yuzasiga teng bo'lsa, oq rangli shaklning perimetrini hisoblang.

- A) 24 B) 24 C) 32 D) 40



5,3 ball bilan baholanadigan savollar




11. (5,3 ball) "Lazzat" do'konida har bir nonni 7 dollardan yoki 3 tasini 19 dollarga sotib olish mumkin. "Lazzat" do'koni yakshanba kuni 380 ta non sotdi va undan 2476 dollar daromad qildi. Shu kuni bu do'kondan nechta 7 dollarlik non xarid qilingan?

- A) 104 B) 92 C) 94 D) 87

12. (5,3 ball) Do'konda 300 gr bodring narxi 1 kg sabzi narxiga teng. Davron 30 kg sabzi va 13,5 kg bodring uchun jami 150000 so'm to'ladi. Agar u faqat 3 kg bodring sotib olganida necha so'm to'lov qilar edi?

- A) 25000 so'm B) 33000 so'm
C) 20000 so'm D) 24000 so'm

13. (5,3 ball) Rasmda asalari uyasi ko'rsatilgan. Qaysidir katakchalarda asal bor. Har bir katakchadagi son unga qo'shni bo'lgan nechta katakchada asal borligini ko'rsatadi. Agar katakchalar umumiy tomoga ega bo'lsa, ular qo'shni hisoblanishadi. Jami nechta katakchada asal bor?



- A) 7 B) 8 C) 9 D) 10

14. (5,3 ball) Jasurning yoshi hozirgi Akbarning yoshida bo'lganida, u Akbardan 2 marta katta bo'lgan. Akbarning yoshi Jasurning yoshiga teng bo'ladigan vaqtda, Jasur 60 yoshda bo'ladi. Hozir Jasur necha yoshda?

- A) 30 B) 42 C) 45 D) 58

15. (5,3 ball) Quyida rasmda berilgan A, B, C, D kartochkalar ostida yozilgan natural sonlar yig'indisi 200 ga teng (kartochkalar o'zining ostida yozilgan sonlari bo'yicha kamayish tartibida joylashtirilgan). B kartochka ostida eng ko'pi bilan qanday son yozilgan bo'lishi mumkin?

$$A > B > C > D$$

- A) 48 B) 50 C) 99 D) 98

7,4 ball bilan baholanadigan savollar

16. (7,4 ball) Barcha natural sonlar quyida ma'lum bir qonuniyat asosida to'plamlarga ajratilgan:

$(1,2,3,4), (5,6,7), (8,9,10,11), (12,13,14), \dots$

60-to'plamdagi sonlar yig'indisini toping.

17. Stol ustida bir o'yin toshining 3 xil ko'rinishi tasvirlangan. Bu kubchalarning yerga tegib turuvchi tomonlarida yozilgan sonlar yig'indisini hisoblang.




18. (7,4 ball) Abbos supermarketdan A, B, C, D mahsulotlarni sotib olishi kerak. Quyidagi jadvallarda supermarketdagi narxlar ko'rsatilgan.

Mahsulot turlari	Narxlar
A	13000
B	9000
C	10000
D	11000

Mahsulot turlari	Narxlar
A+B birgalikda	21800
B+C birgalikda	18900
C+A birgalikda	22400
C+A+B birgalikda	31800
C+D+A birgalikda	33900
D+B+A birgalikda	32900

Abbos barcha mahsulotlarni qanday eng kam narxda sotib olishi mumkin?

- 19. (7,4 ball)** Hasan va Husan yuqoriga harakatlanayotgan eskalatorga chiqishdi. Hasan tezroq chiqish maqsadida sekundiga 3 qadam bilan yuqoriga o'zi ham harakatlana boshladi, Husan esa sekundiga 2 qadam bilan harakatlandi. Agar Hasan 20 sekundda, Husan 25 sekundda yuqori qavatga yetib olgan bo'lsa, eskalatorning zinalari sonini toping.



- 20. (7,4 ball)** A, B, C va D sportchilar 200 metrlik masofaga yugurish bo'yicha bellashdilar. A marraga yetib kelganida, B undan 40 metr orgada, B marraga yetib kelganida, C undan 20 metr orqada edi, C marraga yetib kelganida D undan 25 metr orqada edi. A marraga yetib kelganida, D undan qancha masofa orqada bo'lgan?

